

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING TARBIYAVIY VA ILMIY FAOLIYATIDA "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Ganibayeva Saliya Sharipbay qizi

18-umumiyo`rta ta`lim maktabi

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ustoz-shogird an'anasining tarixiy ildizlari, uning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, an'anani takomillashtirishning samarali yo'llari, jumladan, mentorlik tizimini rivojlantirish, raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish hamda ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari yoritilgan.

Kalit so`zlar: ustoz-shogird an'ansi, ta'lim tizimi, mentorlik, ma'naviyat, tarbiya, innovatsion yondashuv.

Аннотация: В данной статье анализируются исторические корни традиции «учитель – ученик», её роль в воспитании подрастающего поколения и значение в современной системе образования. Кроме того, рассматриваются эффективные пути совершенствования этой традиции, включая развитие менторской системы, использование цифровых образовательных платформ, а также укрепление духовно-нравственных ценностей.

Ключевые слова: традиция «учитель – ученик», система образования, наставничество, духовность, воспитание, инновационный подход.

Annotation: This article analyzes the historical roots of the “teacher–student” tradition, its role in educating the younger generation, and its significance in the modern education system. It also explores effective ways to improve this tradition, including the development of a mentoring system, the use of digital learning platforms, and the strengthening of moral and spiritual values.

Key words: teacher–student tradition, education system, mentorship,

spirituality, upbringing, innovative approach.

Mamlakatimizning bugungi kundagi madaniy hayotida ustoz va shogird an'analarini tiklash va uni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Buning natijasida Respublika va xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan tadbirlar — ustoz va shogird an'analari tasis etildi, ta'limga etibor kuchaydi. Ta'lim sohasidagi tamoyillarga "ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi ustoz va shogird an'analari asosida o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni milliy iftixor va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan ekanligini bildiradi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash ajdodlarimizning madaniy meroslarini, ular ilgari surgan pedagogik g'oyalarni karashlarni tatbiq etish asosida ta'lim mazmunini boyitish, milliy asosni mustahkamlash va bulajak o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalarinnig chuqur tadqiq qilishni taqozo etadi.

"Ustoz-shogird" an'analari namoyondalarining faoliyati ko'p qirrali va mahsuldor bo'lib, pedagogik iqtidorning uyg'unlashuvidan tashkil etilgan betakror va mukammal jarayon hisoblanadi. Ustoz-shogird an'alarida ustoz qobiliyati, katta hajmdagi bilimlari va ulardan foydalanishni bilish, ularning tajribali sohibi ekanliklari muhim o'rin tutadi. Ular butun umri davomida ijod bilan shug'ullanish, shogirdlar bilan ishlashda katta pedagogik faoliyat olib borishgan. Ustozlar pedagogik faoliyatining serqirraligi har doim ular ijodining asosiy yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan.¹

Shu bilan birga ustoz o'z shogirdlariga axloq odob, ta'lim tarbiya yo'nalishlarida savol-javoblar o'tkazishi ularning pedagogik mahoratini rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ustoz o'z faoliyati davomida innovatsion texnologiyalar asosida bilimlarini oshirib borishni talab etadi. Ushbu ta'lim-tarbiyaga oid tematik materiallar sifatini o'zlashtirish uchun uning iste'dodi bilan muhim o'rin egallaydi, U doimo talabalar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-6108-son qarori.

<https://scientific-jl.com/>

orasida taniqli bo'lib, mahorat darslarini o'tkazishi ularning e'tiborini jalb qiladi. Dars tuzilishi, uslubi va metodik xususiyatlari yosh o'qituvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Ustoz Yangi O'zbekiston taraqqiyoti targ'ibotiga shogird jalb etish ularning o'quvchi-yoshlarga ijobiy munosabatda bo'lish jarayonlarini yuqori pog'onaga ko'tarish imkoniyatini yaratadi. Bu borada ustozlar xizmati katta bo'lib, ular o'qituvchi kadrlar tayyorlashda bilimdon samarali faoliyat olib boradi. Ustoz shogirdlari bilan o'zi shug'ullanishi, dars jarayonlarini murakkab jihatlarni qunt bilan o'rganishi, bu mas'uliyatli ishda yordam berishi, birgalikda ma'lumotlarni tahlil etishi, metodik jihatdan talabga javob berishi shogirdlar faoliyatini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy uslublar, xususiyatlari, tarkibi va xarakteri bo'yicha tug'ri keladigan xisobga olinib, dars mashg'ulotlari tuzilishga bir qator o'zgartirishlar kiritiladi.

Har bir millat uchun boy tarix, uning shon-shavkati, betakror ma'naviy merosi, umuman olganda qahramonlarning dunyoga kelishi ustozlarning mehnati samarasi sanaladi. Yaxshi ustoz ko'rgan shogird nafaqat yaxshi inson, balki jamiyatga foydasi tegadigan malakali kadr bo'lib yetishishi aniq. Ma'lumki, Oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassis o'qituvchilarga tarbiyaviy ta'sir qiluvchi Ustoz-shogird an'analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur'atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta'lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o'z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e'tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an'analardan o'rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o'z ifodasini topdi.²

Xalq orasida ustoz va shogirdlik odobi, qadriyati, muloqot shartlari ana shunday yozilmagan qonunlar shaklida million yillardan buyon yashab, kamolga

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

yetib, rivojlanib kelmoqda. Biron bir kasb egasi yo'qki, u ustoz ko'rib kamolga yetmagan bo'lsin. Ustoz va shogirdlik rishtalari juda nozik bo'lib, sal qaltis harakat qilinsa, uzilishi, keyin ulanganda ham tugun qolishi mumkin. Ana shunday hol yuz bermasligi uchun, avvalo, shogird ustoziga cheksiz mehr qo'yishi, ishonishi, uning har bir so'zi, xatti-harakatini tushunishi, unga rioya qilishi shart. Shogird ustozidan o'rganganlarini maromiga yetkazib, mustaqil ish boshlashdan oldin ustozini rozi qilib, duosini olishi ham odat tusiga kirgan. Duo olmagan shogirdlarning esa kosasi oqarmagan, biri ikki bo'lmagan. Rozilik olish ko'ngil obodligini ta'minlashdir. Shogirdidan ko'ngli to'lgan ustozgina unga chin dildan fotiha beradi. Xalqimiz «Ustoz ko'rmagan shogird - har maqomga yo'rg'alar» degan hikmatli iborani bejiz to'qimagan.³

Shogird ustoz rahbarligida bilim yoki hunar o'rganayotgan muddatda uning har bir harakati va ish uslubini, hatto nimani qayerga qo'yish, qaysi tomoniga ko'proq e'tibor berish holatlarini ham sinchiklab kuzatishi talab qilinadi. Odatda ustoz ba'zan hunarning har bir iker-chikirini ham aytavermaydi, balki amalda ko'rsatadi. Ehtimol, bu bilan ustoz shogirdining hushyorligini, sinchkovligi va qiziqishini sinab ko'rmoqchidir? Shu sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan shogirdning oshig'i, shubhasiz, olchi bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida mentorlik va individual yondashuv tushunchalari ustoz-shogird an'anasining zamonaviy shakli sifatida qaralmoqda. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida yosh o'qituvchilarni tajribali pedagoglar bilan bog'lash, ularning kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Bunda ustoz nafaqat nazariy bilimni, balki pedagogik mahorat va kommunikativ ko'nikmalarni ham o'rgatadi.⁴

An'anani takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar
muhim ahamiyatga ega:

³ Hasanboeva O., Ochilova N. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.

⁴ Jalolov J. Ta'limda mentorlik tizimi va ustoz-shogird an'anasi. – “Pedagogik mahorat” jurnali, 2023-yil, №4.

1. Mentorlik dasturlarini kengaytirish – yosh mutaxassislarni tajribali ustozlar bilan biriktirish orqali ularning kasbiy o'sishini tezlashtirish.

2. Raqamli ta'lim muhitidan foydalanish – onlayn platformalar orqali masofaviy ustoz-shogird muloqotini yo'lga qo'yish.

3. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni kuchaytirish – ustozlar o'z shogirdlariga nafaqat kasb, balki hayotiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlarni singdirishlari zarur.

4. Tajriba almashish anjumanlarini tashkil etish – ustoz va shogirdlar ishtirokidagi ochiq darslar, ilmiy seminarlar, ustozlar maktabini yo'lga qo'yish.

Ustoz-shogird an'anasi — bu o'zaro hurmat, ishonch va mehrga asoslangan ijtimoiy-pedagogik tizimdir. Uni takomillashtirish, zamonaviy ta'lim jarayonlariga uyg'unlashtirish yosh avlodni har tomonlama barkamol, bilimli va ma'naviyatli inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi ustozlar zimmasida nafaqat bilim berish, balki shogirdning qalbida yurtga muhabbat va ezgu fazilatlarni shakllantirish mas'uliyati ham bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-6108-son qarori.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

3. Hasanboeva O., Ochilova N. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.

4. Jalolov J. Ta'limda mentorlik tizimi va ustoz-shogird an'anasi. – "Pedagogik mahorat" jurnali, 2023-yil, №4.